

BADIIY ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LINGVISTIK - SEMANTIK MUAMMOLAR (O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19015775>

Musurmonova Dildora

Termiz davlat universiteti

musurmonovadil1201dor@gmail.com

Termiz davlat universiteti

Solijonov94@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek adabiyoti durdonalaridan biri O'tkir Hoshimov qalanuga mansub "Dunyoning ishlari" ('AFFAIRS OF THE WORLD') qissasini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida sodir bo'lgan bir qancha lingvistik transformatsiyalarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar

tarjima, badiiy tarjima, orfologik transformatsiyalar. orfografik transformatsiya, leksikologik transformatsiya, sintaktik transformatsiya, punktiatsion transformatsiya.

KIRISH

"Lingvistika" — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandir. Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongini va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

O'tkir Hoshimov Taniqli o'zbek yozuvchisi va jamoat arbobi. 1941 yili 4 avgustda Toshkentda Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Toshkent (2013-yil 24-may Juma kuni Og'ir hastalik tufayli Oilasi davrasida Toshkentda vafot etgan. Davlat universiteti filologiya fakultetida o'qigan. Turli tahririyat va nashriyotlarda ishlagan. O'tkir Hoshimovning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. „Xazon bo'lgan bahor“, „Inson sadoqati“ (1975), „Vijdon dorisi“, „To'ylar muborak“ (1979), „Qatag'on“ kabi drama, komediya, bir qator kinossenariylar muallifi. „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ (2001) kitobi ijtimoiy -ma'naviy hayotda muayyan iz

qoldirgan. „Cho‘l havosi“ nomli birinchi qissasi 1963 yilda bosilib chiqqan. Talabchan adib Abdulla Qahhorning e’tiboriga sazovor bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MRTODOLOGIYASI.

“Dunyoning ishlari” O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar qissa. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to‘liq tarzda 2005-yilda "Sharq nashriyoti" tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko‘p bora qayta nashr etildi. Jumladan 2015-yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etildi. Shu yili Meriyus nashriyoti tomonidan 272 betda, 3000 nusxali qattiq muqovada nashr etildi. Ushbu nashrning ustki qismida qishloq ko‘chasidagi uylar va adibning onasi tasvirlangan. Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so‘zlari keltirilgan: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehrli kuch bor. Bu-Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!" O‘tkir Hoshimov asarini 2005-yilgi nashrida shunday tariflagan: Bu qissa katta-kichik novellardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba‘zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan.

NATIJALAR

Mazjur maqolada tarjima obyekti sifatida tanlab olingan asarda berilgan gaplarda leksikologik, morfologik va sintaktik transformatsiyalardan foydalanib, tarjima tiliga o‘g‘irishda duch kelingan muammolar ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA

Ikki til bir-biriga qardosh til bo‘lmaganligi yoki bir-biridan tubdan farqilganligi sababli transformatsiyalarning aksariyati punktuatsiya bo‘limiga to‘g‘ri keladi. Chunki ingliz tilidagi asarlarda dialoglar bittalik qo‘shirnoq (") tinish belgisi bilan berilsa, o‘zbek tilida esa hech qanday qo‘shirnoqlar ishlatilmaydi. O‘zbek tilida qo‘shirnoqlar faqatgina personajning ichki o‘y- hayollari, o‘z-o‘ziga gapirib, murojfaat qilgandagina qo‘yiladi. So‘zma so‘z tarjima qilish usuli

Qish paytlari yonboshida tagi mix bilan teshilgan paqirda cho‘g‘ ham bo‘ladi: qo‘lni isitish uchun. Bu gap so‘zma so‘z tarjima qilish usuli orqali tarjima qilingan. Birinchi tarjimasi quyidagicha:

Coal in bucket pierced with a nail on the side in winter will: to warm his hand.

Tahlil qilinganidan keyin bu gap quyidagicha o‘zgardi:

In winter there is coal in a bucket with a on the side: to warm his hand.

Nima ishingiz bor? - dedi Clava qiziqib.

Uchrashmoqchi edim. Atayin Marg‘ilondan kelyapman. Juda zarur gapim bor edi. [1]

What do you have to say to him? Clava asked with interests. "I wanted to meet. I'm coming from Margilan on purpose. [2]

Morfologik transformatsiyalar shu darajada ko'p sodir bo'lganki, ular o'z-o'zidan sintaktik va umuman jamlanib grammatik transformatsiyalarni vujudga keltirgan. Transformatsiyalarning soni qanchalik ko'p bo'lishi tarjimada „SEMA" ya'ni „SEMANTIKA" juda o'zgarib borishini taqazo qilishligini hisobga oladigan bo'lsak, bu asarda tarjimon judayam mahoratli bo'lgan ham transformatsiyalarni amalga oshiradi. Demak, semantic transformatsiyani o'z-o'zidan sodir bo'lishiga sababchi bo'lib qoladi. Shunday ekan ba'zi terminlarni ingliz tiliga neologizim sifatida, o'zbek tilidagi arxaik terminlarni ingliz tiliga neologizim sifatida o'zini saqlab qolishi ehtimollari ko'p uchraydi. Misol uchun, "SOVCHILAR" so'zini olishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak asosan Mazkur ilmiy maqoladan ko'zlangan maqsad badiiy ertaklardagi etimologik va leksikologik o'zgarishlarni, o'quvchi uni to'liq anglashi uchun tahlil va ma'lumotlarni keltirishdan iboratdir. Ushbu o'zgarishlar bo'lishi sababli, gapda semantik, morfologik, fonetik, leksikologik va yana bir qancha o'zgarishlar yuz bergan. Gapdagi bunday o'zgarishlarga esa ko'pincha, tarjima qilinayotgan tillar o'rtasidagidagi nomuqobillik sabab bo'ladi. Ana shu nomuqobillik yuqorida sanab o'tilgan ko'plab grammatik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ushbu maqola esa namuna sifatida ertaklarda uchraydigan o'zgarishlarni, etimologik va leksikologik tahlillarini ko'rsatib beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari." Ilm-ziyo-zakovat. Toshkent-2019, 176-b.
2. Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022), Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4,), 221-229, doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
3. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>

4. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVISKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lim fidoyilari, 18(5), 32-37

Abduraimova Zeboxon Xayrulloevna, & Juraali Kamoljonovich Solijonov. (2022). INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDAGI MORFOLOGIK VA LEKSIKOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI (JONATAN SVIFT ASARI MISOLIDA). EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(4), 306-311. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6504140>

5. R.I.Xalmurodov "Ilmiy axborotnoma " asaridagi 59-bet va 74-bet

6. YOSH TARJIMASHUNOS, V "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" va "Sinxron tarjima" mutaxassisliklari magistrantlari hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalarining yillik an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari" qo'llanmasidagi 13-bet

7. Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)

ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 10 | October, 2022 | SJIF: 5,965 | UIF: 7,6 | ISRA: JIF 1.947 | Google Scholar |

www.carjis.org DOI: 10.24412/2181-2454-2022-10-351-357

Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4), 221-229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>

7. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHP'ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180.